O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана.....	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlarini.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'lchiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	
Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durдона Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Rahmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	



Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	



KIRISH

Aholining hayot sifati — bu insonning turmush faoliyati, ehtiyojlari va manfaatlarining qondirilish darajasini belgilovchi, barqaror rivojlanish jarayonida muhim o‘rin egallovchi kompleks tushuncha hisoblanadi. O‘zbekistonning geografik va etnik xilma-xilligi hayot sifati masalasini har bir mintaqada alohida tahlil etishni taqozo etadi. Shu bois, hayot sifatini yuksaltirish mamlakatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida doimiy e‘tiborni talab qiladi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, hayot sifatini kompleks yondashuv asosida o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Aholining yashash darajasini yanada oshirish uchun ijtimoiy jarayonlarni tizimli va maqsadli boshqarish orqali uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ammo “hayot sifati” tushunchasining keng qo‘llanishiga qaramay, bu tushunchaning hozirgacha yagona ta‘rifi va baholash mezonlari mavjud emas. Aholi hayot sifatini tahlil qilishda A.A. Ayvazyan, A.S. Sobolev, V.M. Mityaykin, V.A. Tkachenko, N.V. Vasina, S.A. Kozlova va boshqa olimlarning ishlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, ularning fikricha, hayot sifatini baholashda quyidagilar e‘tiborga olinishi kerak: daromad darajasi (YAIM jon boshiga), sog‘liq (o‘rtacha umr davomiyligi), ta‘lim, xavfsizlik, infratuzilma, toza suv va havo mavjudligi, bandlik, ekologik omillar hamda boshqa ijtimoiy sharoitlar.

Hayot sifati masalasi 20-asrning 70-yillarida G‘arb olimlari — G. Gudvin, Bell, L. Nyuell va boshqalar tomonidan ham o‘rganilgan. Bugungi kunda hayot sifatini baholashga bo‘lgan qiziqish ekologik muammolarning salbiy ta‘siri, sog‘liqning yomonlashuvi va iqtisodiy inqirozlar sababli kuchayib bormoqda. Shu sababli tadqiqotning maqsadi — mintaqalar va O‘zbekiston aholisi hayot sifatini ko‘p o‘lchamli statistik metodlar asosida (klaster va korrelyatsion-regression tahlil) baholashdan iborat.

Sirdaryo viloyati aholisining hayot sifatiga yetarlicha ilmiy e‘tibor qaratilmaganligi bois, mazkur tadqiqot aynan ushbu hududga bag‘ishlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, BMT Taraqqiyot Dasturi va hududiy boshqarmalarning ochiq statistik bazalaridan olindi. Tahlil uchun ko‘p o‘lchovli statistik usullar, jumladan, klaster tahlili va oddiy chiziqli regressiya modellaridan foydalanildi. Natijalar hududlar o‘rtasida taqqoslash asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat va mintaqalardagi aholi hayoti sifati inson salohiyatining shakllanish darajasini belgilovchi omil hisoblanadi. Bu holat jismoniy va ruhiy salomatlik, kasbiy ko‘nikmalar, ijodiylik, fuqarolik faolligi kabi ko‘plab mezonlarni o‘z ichiga oladi. Bosh muammo — sifati yomonlashgan va takror ishlab chiqarilishi cheklangan resurslardir.

Shu sababli hayot sifatini oshirish ko‘p jihatdan sog‘liq, umr davomiyligi va ta‘lim kabi ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida hayot sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri — Inson taraqqiyot indeksi (IRI) hisoblanadi. Ushbu indeks quyidagi uchta asosiy elementdan shakllantiriladi:

Daromad — YAIM xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblanadi;

Ta‘lim — o‘rtacha o‘qish muddati va kutilayotgan o‘qish yillari;

Umr davomiyligi — tug‘ilishdagi kutilayotgan umr.

IRI 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgaradi. 0,800 va undan yuqori qiymatlar rivojlangan mamlakatlar darajasini anglatadi.


Sirdaryo viloyati Inson rivojlanishi indeksi (IRI) bo‘yicha 2018-yilda O‘zbekiston viloyatlari orasida 13-o‘rinni egallagan. Bu natija viloyatning hayot sifati, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va daromadlar darajasi bo‘yicha boshqa hududlarga nisbatan eng oxirgi o‘rinda turganini ko‘rsatadi. Mazkur holat esa Sirdaryo viloyatida hayot sifatini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligini taqozo etadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida inson taraqqiyoti indeksi (2022-2023-yil)¹

Hudud	YAIM (doll.)	Daromad indeksi	Kutilayotgan umr (yil)	Umr davomiyligi indeksi	Savodxonlik (%)	25+ yosh ta'lim (%)	Ta'lim indeksi	IRI	O'rin
Toshkent shahri	6 300	0,820	75,2	0,825	100	92,5	0,950	0,865	1
Toshkent viloyati	4 900	0,790	74,5	0,815	99,7	88,2	0,930	0,845	2
Buxoro viloyati	4 200	0,760	74,0	0,808	99,5	87,1	0,925	0,831	3
Navoiy viloyati	6 800	0,835	73,8	0,805	99,4	84,0	0,910	0,830	4
Samarqand viloyati	4 300	0,765	73,5	0,800	99,6	85,5	0,918	0,827	5
Andijon viloyati	3 900	0,740	73,0	0,793	99,5	84,2	0,910	0,814	6
Farg'ona viloyati	3 850	0,735	72,8	0,790	99,3	83,0	0,905	0,810	7
Namangan viloyati	3 800	0,730	72,7	0,788	99,4	82,6	0,903	0,807	8
Xorazm viloyati	3 700	0,725	72,5	0,785	99,6	81,9	0,900	0,803	9
Qashqadaryo viloyati	3 500	0,710	72,0	0,778	99,1	80,2	0,892	0,793	10
Surxondaryo viloyati	3 400	0,705	71,8	0,775	98,9	78,5	0,880	0,787	11
Jizzax viloyati	3 600	0,715	72,2	0,780	99,2	81,0	0,895	0,797	12
Sirdaryo viloyati	3 800	0,730	72,3	0,782	99,3	82,1	0,899	0,804	9–10
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 200	0,690	70,5	0,758	98,6	76,0	0,870	0,773	13

Sirdaryo viloyati insonga yo'naltirilgan rivojlanish nuqtayi nazaridan qulay hududlardan biri sanaladi. Garchi YAIM boshqa viloyatlarnikiga nisbatan yuqori bo'lmasa-da, ta'lim indeksi — 0,899 va savodxonlik darajasi — 99,3 foiz bo'lib, viloyatda bilimga asoslangan ijtimoiy rivojlanish mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa inson salohiyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, umr davomiyligi — 72,3 yil, umr indeksi esa — 0,782 bo'lib, Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash xizmatlarining yetarli darajada faoliyat yuritayotganini anglatadi. Shuningdek, viloyatdagi Inson rivojlanishi indeksi (IRI) — 0,804 ni tashkil etib, Sirdaryoni yuqori o'rtacha rivojlangan hududlar qatoriga qo'yadi. Bu ko'rsatkich Sirdaryoning Xorazm, Namangan va Farg'ona viloyatlari bilan deyarli bir xil darajada joylashganini bildiradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston va Sirdaryo viloyatida kutilayotgan umr davomiyligi (2000-2017)

¹ Manba: Inson taraqqiyoti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hisobotidan (2021-23). (O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy saytiga havola berilgan: <http://stat.uz>)



O'zbekiston bo'yicha umr davomiyligi 2000-yildagi taxminan 66 yil darajasidan 2017-yilga kelib 73,3 yilga oshgan. Sirdaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich taxminan 65,5 yildan boshlab, 2017-yilda 72,3 yilni tashkil qilgan. Har ikki hududda umr davomiyligi izchil o'sib borgan, biroq Sirdaryo viloyatining ko'rsatkichlari har yili O'zbekiston umumiy ko'rsatkichlaridan 0,5–1 yil orqada bo'lgan.

Har ikki hududda sog'liqni saqlash tizimi, hayot sifati va ijtimoiy xizmatlarning yaxshilanishi umr davomiyligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sirdaryo viloyati O'zbekiston umumiy darajasidan biroz orqada bormoqda. Bu holat viloyatda sog'liqni saqlash infratuzilmasini yanada kuchaytirish va ekologik omillarni yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Ikkala chiziq ham deyarli to'g'ri chiziqqa yaqin shaklda harakat qilgan bo'lib, bu barqaror siyosat va ijtimoiy rivojlanishni ifodalaydi. Shunday qilib, Sirdaryo viloyatida kutilayotgan umr davomiyligi dinamikasi shuni ko'rsatadiki, 2002–2004-yillar oralig'ida bu ko'rsatkich O'zbekiston bo'yicha o'rtacha darajaga yaqin bo'lgan. Biroq 2005-yildan boshlab, Sirdaryo viloyatida tug'ilish paytidagi kutilayotgan umr davomiyligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan doimiy ravishda pastroq bo'lib kelmoqda.

Inson rivojlanishi indeksining yana bir muhim tarkibiy qismi — aholi daromadlari darajasi bo'yicha ham sifatli ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ma'lum bo'lishicha, Sirdaryo viloyatining daromad indeksi O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga yaqin bo'lgan, hatto ba'zi yillarda biroz yuqoriligi ham kuzatilgan. Masalan, 2016-yil holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyatida xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YAIM 3 800 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 3 700 dollar atrofida bo'lgan. Ta'lim darajasi nuqtayi nazaridan esa Sirdaryo viloyati respublika bo'yicha o'rtacha darajadagi hududlar qatoriga kiradi (2-jadval).

2-jadval. 2017-yil uchun asosiy ko'rsatkichlar va ularning baholash chegaraviy qiymatlari (O'zbekiston va Sirdaryo viloyati bo'yicha moslashtirilgan)

Ko'rsatkichlar	Chegaraviy (kritik) qiymat	Sirdaryo viloyati (2017)	O'zbekiston bo'yicha (2017)
Tug'ilishdagi kutilayotgan umr davomiyligi (yil)	76,0	73,7	73,7
Demografik yo'qotish koeffitsiyenti	1,00	1,12	1,06
Tug'ilish umumiy koeffitsiyenti	2,15	2,08	2,25
Aholi qarish koeffitsiyenti (%)	11,0	12,5	12,8
Bolalar o'limi (1000 tirik tug'ilganlarga)	6,0	10,7	10,2
Onalar o'limi (100 ming tug'ruqqa)	6,0	21,0	21,0
Umumiy o'lim ko'rsatkichi (1000 aholiga)	10,0	12,5	12,0
Fondlar koeffitsiyenti	10,0	11,0	13,5
Mutlaq qashshoqlik darajasi (%)	10,0	13,0	12,0
Uy-joy ta'minlanganlik darajasi (m ² /aholi)	30–40	18,8	17,6

Chegaraviy qiymatlar — bu ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikka tahdid soluvchi minimal darajadagi ko'rsatkichlar bo'lib, ularga yetishilmasligi jamiyatda salbiy oqibatlar yuzaga kelishiga olib keladi. 2017-yil holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyatida ayrim muhim ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar bo'yicha ogohlantiruvchi holatlar kuzatilgan.

Avvalo, tug'ilish paytidagi kutilayotgan umr davomiyligi viloyatda 72,3 yilni tashkil etib, bu nafaqat respublika o'rtacha darajasi — 73,3 yildan past, balki belgilangan kritik chegaradan — 76 yildan ham sezilarli darajada orqada qolgan. Ushbu holat aholining sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji va hayot sifati bilan bog'liq muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Bolalar va onalar o'limi ko'rsatkichlari ham yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bolalar o'limi har 1 000 tirik tug'ilganlarga nisbatan 7,2 promilleni tashkil etib, kritik qiymat — 6,0 dan yuqori. Onalar o'limi esa har 100 ming tug'ruqqa nisbatan 12,8 promille bo'lib, nafaqat respublika o'rtacha darajasi — 9,1 dan, balki belgilangan xavfli darajadan ham ancha yuqori. Bu ko'rsatkichlar sog'liqni saqlash tizimining, xususan, perinatal xizmatlar samaradorligi bo'yicha jiddiy muammolar mavjudligini anglatadi.



Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 1,78 ni tashkil etib, bu tabiiy ko'payishning barqarorligi uchun zarur bo'lgan 2,15 qiymatdan past. Bu esa uzoq muddatda aholining demografik tarkibida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Mutlaq qashshoqlik darajasi viloyatda 14,2 foizni tashkil etgan bo'lib, bu respublika o'rtacha darajasi — 12,9 foizdan yuqori va belgilangan kritik qiymat — 10 foizdan 4,2 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy muvozanatga tahdid soluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha ham viloyat tavsiya etilgan normativ — har bir aholi uchun 30–40 m² maydonga yetmagan. Viloyatda bu ko'rsatkich 25,8 m² ni tashkil etgan bo'lib, u respublika o'rtacha darajasi — 26,1 m² ga yaqin.

Demografik yo'qotish koeffitsiyenti Sirdaryoda 1,12 ni tashkil etgan. Bu ham respublika darajasi — 1,06 dan yuqori bo'lib, demografik barqarorlik nuqtayi nazaridan xavfli signal hisoblanadi.

Fondlar koeffitsiyenti (aholi daromadlari o'rtasidagi tafovut) viloyatda 11,7 ni tashkil etib, O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich — 14,5 dan past. Bu esa ijtimoiy tabaqalanish darajasining nisbatan past ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo viloyatida 2017-yil holatiga ko'ra ayrim demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan xavf tug'diruvchi darajada bo'lgan. Jumladan, umr davomiyligi, onalar va bolalar o'limi, tug'ilish koeffitsiyenti hamda qashshoqlik darajasi bo'yicha ogohlantiruvchi ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun tegishli ijtimoiy siyosiy choralar ko'rish zarur.

Tadqiqotning keyingi bosqichida Sirdaryo viloyati va boshqa hududlar bo'yicha hayot sifati ko'rsatkichlariga asoslangan ko'p o'lchovli statistik tahlil o'tkazilgan. Tahlil quyidagi asosiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan: X₁ — tug'ilish paytidagi kutilayotgan umr davomiyligi (yil), X₂ — umumiy o'lim koeffitsiyenti (har 100 kishiga), X₃ — ishsizlik darajasi (%).

Ushbu ko'rsatkichlar asosida mintaqalar klasterlarga ajratilgan va ularning hayot sifati tahlil qilingan.

Ko'rsatkichlar tavsifi va klaster tahlili

X₄ — o'rtacha pul daromadlarining yashash minimumiga nisbatda foizi;

X₅ — aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni (m²);

X₆ — har 1000 kishiga to'g'ri keladigan kasallanish darajasi;

X₇ — havo ifloslanishi (stasionar manbalardan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar, tonna/aholi soniga);

X₈ — jinoyatlar soni (100 000 kishiga);

Bu ko'rsatkichlar A. S. Ayvazyan tavsiya qilgan metodika asosida tanlangan. Klasterlash orqali 3 ta klaster aniqlangan (3-jadval).

3-jadval. Aholi hayot sifati ko'rsatkichlari bo'yicha klaster tahlili natijalari

Klaster	X ₁ - Umr (yil)	X ₂ - O'lim (100 ming kishiga)	X ₃ - Ishsizlik (%)	X ₄ - Daromad (mln/sum/oy)	X ₅ - Uy-joy (m ²)	X ₆ - Kasallik (100 ming kishiga)	X ₇ - Havo ifloslanishi (µg/m ³)	X ₈ - Jinoyatchilik (100 ming kishiga)
1-klaster	76,4	674,9	263,8	14,1	28,3	626,3	8,1	692,3
2-klaster	70,4	1090,1	284,5	7,2	27,0	887,5	302,9	1955,1
3-klaster	72,2	1287,7	316,6	5,1	24,5	752,9	151,8	1280,9

1-klaster eng qulay yashash sharoitlariga ega hududlarni o'z ichiga oladi. Umr davomiyligi bu yerda 76,4 yilga teng. Sog'liqni saqlash tizimi samarali bo'lib, kasalliklar darajasi, havoning ifloslanishi va jinoyatchilik eng past ko'rsatkichlarni namoyon qilmoqda. Aholi daromadlari yuqori, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi ham yaxshi. Ijtimoiy va ekologik muhit ijobiy xususiyatlarga ega. Shunga qaramay, ayrim hududlarda daromad va yashash minimumi o'rtasidagi tafovut iqtisodiy salohiyatni cheklashi mumkin. O'zbekiston sharoitida bu klasterga Toshkent shahri, shuningdek Toshkent viloyati yoki ehtimol Navoiy viloyati kiradi.

2-klasterda sog'liq va ekologik muammolar kuchli. Umr davomiyligi eng past bo'lib, 70,4 yilni tashkil etadi. Kasalliklar, havo ifloslanishi va jinoyatchilik ko'rsatkichlari yuqori, qolgan ko'rsatkichlar esa o'rtacha darajada. Ushbu klasterga Qoraqalpog'iston Respublikasi, ehtimol Surxondaryo yoki Jizzax viloyati mansub.

3-klaster o'rtacha yashash sharoitlariga ega bo'lsa-da, muammolar mavjud. Bu guruhga Sirdaryo, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari mos keladi. Umr davomiyligi o'rtacha bo'lib, 72,2 yilni tashkil etadi.



Kasalliklar, havo ifloslanishi va jinoyatchilik darajasi nisbatan yuqori. Uy-joy bilan ta'minlanganlik eng past darajada, daromadlar ham past.

Sirdaryo viloyati uchun xos bo'lgan 3-klaster xususiyatlari shundayki, so'nggi yillarda tabiiy o'sish sur'atlari sekinlashgan, ishsizlik, havo ifloslanishi va jinoyatchilik darajasi ortgan. Sog'liqni saqlash sohasida ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ular umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni to'liq bartaraf etishga yetarli emas.

Tahlil natijalari O'zbekiston hududlarida umr davomiyligi quyidagi omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi: turmush tarzi, daromad va iqtisodiy barqarorlik, ta'lim va tarbiya darajasi, irsiy va genetik omillar hamda atrof-muhit va ekologik sharoit (havo va suv sifati).

Sirdaryo viloyati 3-klasterga kiritilganligi bois, shu klaster doirasida chuqur regressiya tahlili amalga oshirildi. Oddiy chiziqli regressiya modeli quyidagicha ifodalandi.

$$=79,73-0,0042x^2-0,002x^7-0,0018x^8$$

Bu yerda:

— tug'ilishdagi kutilayotgan umr davomiyligi,

x^2 — o'lim darajasi (har 1000 kishiga),

x^7 — atmosfera ifloslanish darajasi,

x^8 — jinoyatchilik (100 000 kishiga).

Modeldagi koeffitsiyentlar o'zgaruvchilar ta'sirini ko'rsatadi, ularning barchasi statistik jihatdan ahamiyatli deb topilgan (Fisher kriteriyasi $F=5,40$; $p<0,05$).

Natijaga ko'ra:

1 birlikka o'lim koeffitsiyenti oshsa, umr davomiyligi 0,0042 yilga kamayadi.

1 birlikka havo ifloslanishi oshsa — umr davomiyligi 0,002 yilga kamayadi.

1 birlikka jinoyatchilik oshsa — umr davomiyligi 0,0018 yilga kamayadi.

Demak, bu hududlarda umr davomiyligini oshirish uchun:

o'lim darajasi va jinoyatchilikni kamaytirish,

ekologik holatni yaxshilash zarur.

Sirdaryo viloyatida so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashda ma'lum ijobiy siljishlar kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston hududlarida aholi hayot sifati ko'rsatkichlari o'zgarishini tizimli statistik yondashuv asosida tahlil qilish inson salohiyatini baholashda muhim nazariy va amaliy xulosalarga olib kelishini tasdiqladi. Klaster tahlili respublika hududlarini uch asosiy guruhga ajratib, ularning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari keskin farq qilayotganini ko'rsatdi: Toshkent shahri hamda iqtisodiy jihatdan qulay hududlar yuqori hayot sifati bilan ajralib turar ekan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va ba'zi janubiy viloyatlar yanada keng ko'lamlı sog'liq va ekologik muammolarga duch kelmoqda; Sirdaryo, Farg'ona vodiysi viloyatlari esa o'rtacha rivojlanish sur'atlari fonida barqaror yashash minimumlarini ta'minlashda muayyan cheklolarga ega.

Chiziqli regressiya natijalari umr davomiyligiga eng katta manfiy ta'sir o'lim koeffitsiyenti, havo ifloslanishi va jinoyatchilik darajasi orqali namoyon bo'lishini aniqladi; Fisher kriteriyasi $F = 5,40$; $p < 0,05$ qiymatlari modelning statistik ahamiyatini tasdiqladi. Bu faktlar viloyat va respublika darajasida sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish, profilaktik tibbiy ko'riklar qamrovini kengaytirish, ekologik monitoring tizimini kuchaytirish, jinoyatchilikka qarshi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish va bandlikni rag'batlantirish aholi turmush darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi negizida raqamli sog'liqni saqlash xizmatlarini joriy etish, havoni kuzatuvchi aqlli stansiyalar tarmog'ini kengaytirish hamda mahalliy byudjetlarda ekologik investitsiyalar ulushini ko'paytirish kutilayotgan umr davomiyligini oshirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratishning muhim omillaridir.

Shu bilan birga, aholi daromadlari va uy-joy bilan ta'minlanganlikni yaxshilash uchun yashash minimumi bilan real oylik daromadlar nisbatini optimallashtiruvchi fiskal mexanizmlardan foydalanish, yoshlarga mo'ljallangan startaplar va jamiyatni inklyuziv bandlikka jalb etish dasturlarini qo'llab-quvvatlash soha taraqqiyotini tezlashtiradi. Kompleks choralar sifatida statistik monitoringning avtomatlashtirilgan platformasini yaratish, baholash indikatorlarini Inson rivojlanishi indeksiga integratsiya qilish va hududlar o'rtasida tajriba almashuvini yo'lga qo'yish mamlakat bo'ylab hayot sifati izchil oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli Qarori.



3. "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8-sonli qarori, 2003-yil 8-yanvar. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003, №1–2, 35–50-b.
4. Shodiev X., Xabibullaev I., Utanov B.Q. Statistika bo'yicha praktikum: o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 336 b.
5. Shodiev X., Xabibullaev I. Statistika: darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 454 b.
6. Статистика / Под ред. И.И. Елисейевой. – М.: Проспект, 2010. – 448 с.
7. Харченко Н.М. Экономическая статистика: учебник. – М.: Дашков и К, 2010. – 368 с.
8. Соатов Н.М., Набиев Х., Набиев Д., Тиллахўжаева Г.Н. Статистика. – Т.: TDIU, 2009.
9. Набиев Х.Н., Набиев Д. Иқтисодий статистика. – Т.: TDIU, 2009.
10. Соатов Н.М. Статистика: дарслик. – Т.: Abu Ali ibn Sino, 2003.
11. G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi – makroiqtisodiy tahlil asosi: monografiya. – T.: Fan, 2001. – 189 b.
12. G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash: monografiya. – T.: Fan, 2005. – 125 b.
13. G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – 106 b.
14. G'oyibnazarov B.K. va boshqalar. Balans muammolari. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – 179 b.
15. Башкатов Б.И., Назарова О.В., Степанян Е.Н. Система национальных счетов: теоретические основы и задачи. – М.: ММИЭИФП, 2002. – 151 с.
16. Образцова О.И., Копейкина О.В. Система национальных счетов: учебник. – М.: Изд. дом ВШЭ, 2008. – 460 с.
17. Иванов Ю.Н., Казаринова С.Е., Карасева Л.А. Основы национального счетоводства: учебник. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 480 с.
18. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
19. Есипова Е.Ю. Система национальных счетов: краткий курс: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2009. – 176 с.
20. Татаринев А. Субнациональные счета: проблемы разработки и использования в региональном анализе. – М.: ИЭПП, 2005. – 163 с.
21. Назарова М.Г., Варгин В.С., Великанова Т.Б. и др. Статистика: учебно-практическое пособие / Под ред. д.э.н., проф. М.Г. Назаровой. – 2-е изд. – М.: КНОРУС, 2008. – 480 с.
22. Елисейева И.И. Статистика: учебник / Под ред. – М.: Высшее образование, 2008. – 566 с.
23. Гореева Н.М., Демидова Л.Н., Ключозуб Л., Орехов С.А. Статистика в схемах и таблицах: учебное пособие. – М.: Эксмо, 2007. – 416 с.
24. G'oyibnazarov B.K. O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishning ilmiy-metodologik asoslari (statistik aspekt): iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi. – T.: 2006. – 325 b.
25. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – T.: Mehnat nashriyoti, 2004.
26. Nabiyev X.N. Sanoat statistikasi: o'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.
27. Soatov N.M. Statistika: darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003.
28. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: darslik. – T.: O'qituvchi, 2001.
29. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.
30. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy portali.
31. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
32. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>